

AGRESSIYA MUAMMOSINING DIAGNOSTIK ASOSLARI

Shermetov Atabek Ismoilovich

Mudofaa ishlar bo‘lim boshlig‘i

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada askarlarda agressiya muammosini o‘rganishning diagnostik asoslari yoritilgan. Agressiya va aggressiv xulqni o‘rganish anchagina o‘ziga xos murakkabliklarga ega ekanligi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Mamlakat, diagnostik, agressiya, xulq, askar, muammo, aggressiv, emotsianal.

АННОТАЦИЯ

В статье описаны диагностические основы изучения проблемы агрессии у солдатов. Рассмотрены агрессия и агрессивное поведение, имеющие множество уникальных сложностей.

Ключевые слова: страна, диагностика, агрессия, поведение, курсант, проблема, агрессивность, эмоциональность.

ABSTRACT

The article describes the diagnostic basis for studying the problem of aggression among cadets. The study of aggression and aggressive behavior was thought to have many unique challenges.

Keywords: Country, diagnosis, aggression, behavior, cadet, problem, aggressiveness, emotionality.

Mamlakat rivoji va xavfsizligida uning himoyasida asosiy kuch bo‘lgan askarlarning bilimi, madaniyati, professionalligi muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, harbiy qism askarlarining intellektual, emotsional sohalarida duch kelinayotgan muammolar bilan ishlash dolzarbdir. Aynisqa, askarlarda emotsianal sohasida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar, xususan, salbiy o‘zgarishlar, ayniqsa aggressiv xulqni namoyon bo‘lishi masalasi bugun komandir va boshliqlarni jiddiy o‘ylantirayotgan masala sifatida e’tiborni jalb etib kelmoqda. Shuning uchun askarlarida namoyon bo‘luvchi aggressiv xulqni o‘rganish va uni korreksiya qilish yo‘llarini ilmiy nazariy va ilmiy amaliy jihatdan o‘rganish dolzarbdir.

Agressivlik muammosi necha asrlardan beri o‘rganilib kelinayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘luvchi

xulq-atvor tiplaridan biri bo‘lgan agressiya va inson agressiv xulqini o‘rganish, dolzARB mavzu bo‘lib, ushbu fenomenning asl mohiyatini ochib berishga urinayotgan olimlarning diqqatini hozirgacha o‘ziga tortib keladi.

Oddiy kundalik hayotda agressiya - zo‘ravonlik yoki raqibni yengish uchun qo‘llaniladigan vosita sifatida tavsiflanadi. Agressiya – kishilar o‘rtasidagi turli kelishmovchilik oqibatida kelib chiqadigan har qanday xulq-atvor modellaridan biri bo‘lib, u shunday atamaki, unga oid mulohazalar nafaqat psixologlarni, balki sotsiolog, huquqshunos, pedagog, faylasuf, ijtimoiy soha xodimlarining barchasini birdek qiziqtiradi. Biroq agressiya va agressiv xulqni o‘rganish anchagina o‘ziga xos murakkabliklarga ega ekanligini unutmasligimiz kerak, ayniqsa bu muammoni askarlarda o‘rganish uning murakkabligini yanada oshiradi. Negaki agressiv xulqni o‘rganishga bag‘ishlangan aksariyat tadqiqotlar katta yoshdagilar bilan o‘tkazilgan va shunga ko‘ra, diagnostik vositalar ham kattalar uchun ishlab chiqilgan. Shuning uchun agressiya muammosini empirik jihatdan o‘rganish uchun avvalo diagnostik ma’lumotlar bilan tanishish maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda biz quyidagi ma’lumotlar bilan tanishib chiqdik.

M.Yu.Mixaylinaning fikriga ko‘ra, “Diagnostik ish psixolog ishining an’anaviy qismidir. Psixologning psixodiagnostik faoliyatini qurishi va tashkil etishining quyidagi tamoyillari ajratiladi.

1.Tanlangan diagnostika yondashuvi va muayyan metodologiyaning psixologik faoliyat maqsadlariga muvofiqligi (samarali olib borishning maqsad va vazifalari).

2.So‘rov natijalari “pedagogik” tilda bo‘lishi yoki bunday tilga oson o‘girilishi kerak.

3.Qo‘llaniladigan usullarning prognozliligi, ya’ni ular asosida o‘rganishning keyingi bosqichlarida rivojlanishining ayrim xususiyatlarini oldindan aytish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan buzilishlar va qiyinchiliklarning oldini olish qobiliyati.

4.Metodning yuqori rivojlanish salohiyati, ya’ni tadqiqot jarayonida rivojlanish effektini olish va uning asosida turli rivojlantiruvchi dasturlarini qurish imkoniyati.

5.Shaxsiy agressivlik darajasini aniqlash va uning paydo bo‘lish sabablarini aniqlash imkonini beruvchi ko‘plab metodlar mavjud. Biroq, ularning barchasi turli yosh guruhlariga qaratilgan, shuning uchun ma’lum bir yosh uchun metodlarni tanlashda har bir variantni diqqat bilan o‘rganish va eng maqbulini tanlash kerak.

Askarlarining agressiv xulqini o‘rganish va ular bilan ishlashda quyidagi metodikalar juda mashhur.

1. “Kaktus” proyektiv grafik metodikasi askardagi emotsiyal va shaxsiy sohasini o‘rganish uchun mo‘ljallangan. Foydalanish ancha oson. Askarga kaktusni qog‘ozga o‘zlarini tasavvur qilganidek chizish taklif etiladi. Qo‘sishma tushuntirishlar va savollarga ruxsat berilmaydi. Surat interpretatsasida ko‘rsatkichlardan biri agressivlik

ko'rsatkichi bo'lib, uning mavjudligi ignalarning o'lchami va joylashuvi bilan aniqlanadi.

2. "Timsoh" metodikasi bo'yicha timsoh suratining tasviri agressiv tendensiyalarni aniqlashga yordam beradi. Bu hayvon agressiv xatti-harakatlarning ramzidir. Chizmada g'azab, adovat, dushmanlik kabi xarakter xususiyatlari aks ettirilgan.

3. Qiziqarli proyektiv metodikalardan biri "Mavjud bo'lman hayvonni chizish" metodikasıdır. Ushbu metodikaning maqsadi: askarning agressiv xatti-harakatlari darajasini baholash - mavjud bo'lman hayvonni chizish, ongsiz ravishda o'zining ichki dunyosini qog'ozga o'tkazadi, men - obrazini, uning atrofidagi dunyo bilan munosabatlarini aks ettiradi.

4. Metodologiya E.Vagner "Qo'l sinovi" - proyektiv metodika bo'lib, agressivlikni tashxislash imkonini beradi, kuzatilayotgan askarlar faoliyatining aktivligi tendensiyalari haqida xulosa chiqarish mumkin bo'lgan turli xil harakatlarni bajaradigan qo'lning vizual stimul tasvirlarini taklif qiladi.

5. "Uy-daraxt-odam" testi. Ushbu test askarning xatti-harakatlarining ayrim xususiyatlarini, shuningdek, agressiv tendensiyalarning mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

6. Rozentsveyga testi. Metodikaning asosiy maqsadi - askarning muayyan vaziyatlarga (asosan muvaffaqiyatsizlik holatiga) xatti-harakatlaridagi reaksiyalarini aniqlash. Stimul sifatidagi material - bu turli harakatlarni amalga oshirayotgan odamlar tasvirlangan rasmlar to'plami. Bunda, odamlardan birining yonida uning replikasi (jumlesi) yozilgan. Askardan bu odamga qanday javob berishini taklif qilish so'raladi. Kelajakda uning javoblari ikkita reja bo'yicha baholanadi: reaksiya yo'nalishi va reaksiya turi. Natijada, guruhning konformlik koefisienti hisoblab chiqiladi, bu askarning o'zi mansub bo'lgan guruhga qanchalik muvaffaqiyatli moslashishini ko'rsatadi. Natijalarni hisoblashda askarning frustratsion reaksiyalarining xususiyatlari ham aniqlanadi.

7. R.Jills tomonidan shaxslararo munosabatlarni aniqlash testi askarning individual xususiyatlarini va ularning kundalik faoliyatida va boshqalar bilan muloqotda namoyon bo'lishini o'rganishga qaratilgan. R.Jills metodologiyasi 25 ta rasm va 17 test topshiriqdan iborat. Ular askarga navbatma-navbat taklif qilinadi, har bir pozitsiya uchun muallifning sharhi va aniq vazifa taklif etiladi. Askar barcha topshiriqlarni bajargandan so'ng, javoblar qayta ishlanadi va juda batafsil shaxsiy profil tuziladi. Metodikani amalga oshirgandan so'ng, "Shaxslararo munosabatlar profile", "Shaxsiy xususiyatlar profile", "Askarning xatti-harakatlariga javob berish tiplari profile" ni tuzish mumkin deb hisoblanadi. Xulq-atvor reaksiyasining tiplarini aniqlashda askarning agressivlik darajasi aniqlanadi, bu faol agressiv reaksiya

(baqirish, kimningdir ustidan kulish, e'tiroz bildirish, taqiqlangan joyga borish, g'azablanish) mavjudligida ifodalanadi.

8. Oilani kinetik suratini chizish metodikasi ham proyektivlar qatoriga mansub. U.R.Berns va S.Kaufman tomonidan askarning subyektiv oilaviy ahvolini diagnostika qilish maqsadida ishlab chiqilgan. Askardan: "Oilangizni chizing, bunda hamma nimadir bilan mashg'ul bo'lsin" deb so'raladi. Metodika oilaviy vaziyatning qulayligi, nomukammallik hissi, oiladagi nizolar, oila ichidagi munosabatlarda tashvish va adovatning aksini ochib beradi. Ushbu omillarning har biri uchun tahlil davomida ajratilgan alohida ko'rsatkichlar mavjud.

Yuqoridagi barcha metodikalar ma'lum afzalliklarga va kamchiliklarga ega. Ushbu metodikalar askarning agressivligini aniqlash uchun ko'proq mos keladi. Askarlarda esa nafaqat agressivlik darajasini, balki ushbu hodisaning paydo bo'lish sabablarini ham eng aniq baholash uchun Bass-Darki so'rovnomasini tavsiya etiladi.

Bass-Darki texnikasi subyektlarga xos bo'lgan agressiv xatti-harakatlar shakllarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu metodikani qo'llash orqali o'smirlarning turli toifalarida agressivlik har xil sifat va miqdoriy xususiyatlarga ega ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Shu bilan birga, ushbu uslub o'smirlarning ma'lum bir yo'nalishda harakat qilishga tayyorligi to'g'risida ma'lumot olish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu metodikani qo'llash natijalari askarning motivatsion sohasining mazmuni haqida ba'zi xulosalar chiqarishga imkon beradi, chunki subyekt uchun odatiy bo'lgan javob shakllari orasidan xatti-harakatlar usullarini tanlash haqiqatdan mavjud bo'lgan his-tuyg'ularni shakllantiruvchi motivlar bilan bog'liq.

Metodika jami 75 ta bayonotdan iborat bo'lib, unga subyekt "ha" yoki "yo'q" deb javob berishi kerak. Sinov jarayonida agressivlik va dushmanlik reaksiyalarining quyidagi shakllari aniqlanadi.

1. Jismoniy agressiya - boshqa shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatish.
2. Bilvosita - agressivlik, aylanma yo'l bilan boshqa shaxsga qaratilgan yoki hech kimga qaratilmagan.
3. G'azablanish - eng kichik qo'zg'alishda salbiy his-tuyg'ularni namoyon etishga tayyorlik (jahdorlik, qo'pollik).
4. Negativizm - xulq-atvordagi oppozitiv uslub - passiv qarshilikdan tortib, o'rnatilgan urf-odatlar va qonunlarga qarshi faol kurash.
5. Nafrat – haqiqiy va uydirma harakatlar uchun boshqalarga nisbatan hasad va nafrat.
6. Shubhalilik - odamlarga nisbatan ishonchsizlik va ehtiyyotkorlikdan tortib, boshqa odamlarning zarar keltirish rejalarini tuzayotgani va zarar keltirayotganiga ishonish.

7. Verbal agressiya - salbiy his-tuyg‘ularning shakli (qiyqiriq, qichqiriq), va og‘zaki javoblar mazmuni (la’natlar, tahdidlar) orqali ifodalanishi.

8. Aybdorlik tuyg‘usi - subyektning o‘zini yomon odam ekanligiga, yomonlik qilayotganiga ishonishini, shuningdek vijdon azobi hissini ifodalaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqgan holda quyidagicha xulosa qilish mumkin. Har qanday sharoitda ham agressiya muammosini o‘rganishning diagnostik asoslarini ilmiy nazariy va ilmiy amaliy jihatdan askarlar xulq-atvordagi o‘zgarishga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoev Sh.M. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. /O‘zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig‘ilishdagi nutqi.///Vatanparvar, 2023. 10 yanvar.
2. Psixologik-pedagogik atamalar izohli lug‘ati. – T.: O‘R Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019 y. –116 b.
3. Агрессия у детей и подростков: Учебное пособие/Под ред. Н. М. Платоновой. — СПб: Реч. — 2016. — 336с.
4. Можгинский Ю.Б. Агрессия: эмоциональный и кризисный механизм. СПб.: Питер, 2009.
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2003, 5-jild. – 704 bet.
6. www.pedagog.uz
7. www.tdpu.uz
8. www.Ziyonet.uz